

JAZOIRLIK ADABIYOTSHUNOS TOXIR VATTOR HAYOTI VA IJODI

Tolibjonova Arofat Obidjon qizi

Oriental universiteti

Lingvistika: arab tili fakulteti

1 kurs magistratura talabasi

Email: daripova40@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada jazoirlik yozuvchi va adabiyotshunos Tohir Vattorning hayoti, ijodiy faoliyati hamda uning arab adabiyotiga qo'shgan hissasi tahlil etiladi. Muallif arab yozma merosini zamonaviylik bilan uyg'unlashtirib, roman va maqolalari orqali Jazoir xalqi boshidan kechirgan tarixiy voqealar, mustamlakachilik davrining og'ir ruhiy bosimlari va ozodlik uchun olib borilgan kurashni yuksak badiiy saviyada ifodalagan. Adib asarlarida arab madaniyati, an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlar yorqin aks etgan..

Kalit sozlar: Toxir Vattor, Jazoir adabiyoti, roman, zamonaviy adabiyot, milliy ozodlik harakati, arab madaniyati.

Аннотация: В данной статье рассматриваются жизнь и творческая деятельность алжирского писателя и литературоведа Тахира Ваттара, а также его вклад в арабскую литературу. Автор гармонично сочетал арабское письменное наследие с современностью, выразив в своих романах и статьях исторические события, пережитые народом Алжира, духовные страдания в период колониализма и борьбу за свободу на высоком художественном уровне. В его произведениях ярко отражены сложные отношения между арабской культурой, традиционными ценностями и современной социальной реальностью.

Ключевые слова: Тахир Ваттар, Алжирская литература, роман современная литература национально-освободительное движение, арабская культура.

Abstract: This article analyzes the life and creative activity of Algerian writer and literary scholar Tahar Wattar, as well as his contribution to Arabic literature. The author skillfully combined classical Arabic literary heritage with modernity, expressing in his novels and articles the historical events experienced by the Algerian people, the psychological struggles of the colonial era, and the fight for independence through a high literary standard. His works vividly reflect the complex relationship between Arab culture, traditional values, and contemporary society.

Keywords: Tahir Wattar, Algerian literature, novel, modern literature, national liberation, Arabic culture.

KIRISH

Jazoir adabiyoti arab dunyosining eng muhim qismaridan biri bo'lib, uning shakllanishi va rivojlanishida ko'plab yozuvchilarning hissasi beqiyosdir. Arab va fransuz

tilarida yozilgan eng mukammal asarlarning aksar qismi ham aynan Jazoir adabiyotidan o'rin olgan. Ushbu adabiyot asosan milliy ozodlik harakati, Fransiya mustamlakachiligining halokatli ta'siri, olib brogan og'ir siyosati va Jazoir xalqi boshidan kechirgan sinovlarni yoritishga qaratilgan. Jazoir adabiyoti uzoq yillar fransuz mustamlakachiligi ta'sirida qolgan bo'lsa-da, xalqning milliy o'zligini tiklash va arab madaniyatini qayta jonlantirishda muhim rol o'ynagan. Fransiya mustamlakachiligini tugatish va milliy ozodlik sari kurash 1954-yil boshlanib 1962-yilda yakunlangan. "Bir million shahid urushi" nomi bilan mashhur bo'lgan bu shiddatli kurash Jazoir millatining madaniy hayotining, ayniqsa, badiiy adabiyotning eng katta ilhom manbaiga aylandi. Jazoir urushiga qadar maktablarda arab tilini o'qitish taqiqlanganligi sababli, 1962-yilgacha arab tilidagi adabiyotlar kam bo'lib asosan hikoyalar tarzida yozilgan. Bu jarayon 1950-yillarda fransuz tilidagi ilk zamonaviy romanlardan boshlab, 1960-yillarda arab tilidagi zamonaviy Jazoir romanchiligining asoschilaridan biri bo'lgan Toxir Vattor ijodi bilan davom etdi.

Maqsad va vazifalar. Mazkur maqola orqali Jazoir adabiyotining yirik namoyandalaridan biri - Tohir Vattorning ijodiy merosi yoritiladi. Maqolaning asosiy maqsadi - adibning adabiyot va madaniyat sohasidagi o'rni, uning arab tiliga sadoqati va milliylik ruhida ijodi orqali arab dunyosidagi ta'sirini ochib berishdan iborat.

Usullar. Maqolada tarixiy, adabiy va biografik tahlil metodlaridan foydalanilgan. Tohir Vattor asarlari, adib haqidagi adabiy maqolalar hamda Jazoir adabiyotiga doir ilmiy manbalar asos qilib olingan. Shuningdek, arab adabiyotining zamonaviy taraqqiyoti davrida Vattor ijodining ahamiyati yoritilgan.

Natijalar va mulohaza. Toxir Vattor 1936-yil Jazoir sharqidagi Annaba va Tebessa orasidagi Sedrata qishlog'ida tug'ilgan. U an'anaviy arab boshlang'ich maktabida ta'lim olib Qur'onni o'rgandi. 1952-1954-yillarda Konstantinda joylashgan Ben Badis institutida islom huquqini o'rgangan. Toxir Vattorning oilasi fransuz mustamlakachiligaga keskin qarshi bo'lgan, shuning uchun uning arab tilida ta'lim olishi ham fransuz ta'sirini rad etishining ifodasi edi. Toxir Vattor Jazoirlik yozuvchi va jurnalist bo'lib, u Jazoir adabiyotining eng yirik namoyondalaridan biridir. Adib ko'plab Jazoirlik yozuvchilardan farqli o'laroq arab tilida ijod qilgan. 1974-yilda nashr etilgan dastlabki ikki romani Jazoir Fransiya mustaqillikka erishgandan so'ng arab tilida chop etilgan ilk romanlar qatoriga kiradi. U jami 11 ta roman yozgan. Romanlar bilan bir qatorda bir qancha pyessa va hikoyalar muallifi sanaladi. Uning ijodiy merosiga romanlaridan tashqari 2 ta pyessa va 3 ta hikoyalar to'plami kiradi. Toxir Vattorning madaniy faoliyat va adabiy ifoda erkinligini qo'llab quvvatlash yo'lida qilgan harakatlari uni mustaqillikdan keyingi Jazoir siyosiy madaniyatining muhim arbobiga aylantirdi. Toxir Vattor urush yillarini Tunisda o'tkazdi va avvaliga Zaytuna Islom universitetida tahsil oldi, Adib klassik va zamonaviy arab adabiyotini, shuningdek, fransuz va jahon adabiyotini keng o'rgandi. U balog'at yoshiga yetganda, milliy ozodlik harakati mustaqillik urushiga aylangan edi. Tunisda bo'lgan paytida u xalqaro doiralarda Jazoir urushiga berilgan baholarga guvoh bo'ldi. Adib ijtimoiy dunyoqarashga sodiq qolib, urushni faqat mustaqillikka erishish vositasi emas balki ta'lim, farovonlik va iqtisodiy adolatni barchaga yetkazish, haqiqiy mustaqillikka

sanoatlashtirish orqali erishish yo'lidagi inqilobning birinchi bosqichi deb bildi. U Qur'onni va klassik arab adabiyotini yaxshi bilgan, shu bilan birga zamonaviy arab adabiyoti va jahon adabiyotidan ham ta'sirlangan edi. Adibni nafaqat iste'dodli yozuvchi balki maxoratli tarjimon deyish ham o'rinli albatta. Tarjimonlik faoliyati davomida bir qancha asarlarni betakror tarjima qilgan. Bundan tashqari, sotsializm va adabiyotning ijtimoiy ahamiyati bilan aloqador g'oyalarga qiziqqan. 1955-yilda adib o'zining ilk hikoyalarini gazetalarda chop ettira boshladi. Uning "Nuvva" nomli hikoyasi ham usha davrlarda gazetada chop ettirilgan va keyinchalik mazkur hikoya asosida film ham ishlangan.

1954-yil Jazoirning Milliy Ozodlik Fronti Fransiya hukumronligiga qarshi mustaqillik urushini boshladi.. 1956-yil Toxir Vattor universitetdagi tahsilni tark etib, Jazoirning Milliy Ozodlik Frontining fuqaro tashkilotida ishlay boshladi. Yozuvchi va jurnalist sifatida o'zining faoliyatini yanada rivojlantirdi. 1962-yilda mustaqillik qo'lga kiritilgach adib Jazoirga qaytdi va hukmron partiyaning nazoratchisi lavozimiga tayinlandi. U ushbu lavozimni 1984-yilgacha egallab turdi.

Toxir Vattor asarlari ijtimoiy realism yo'nlashida yaratilgan. 1960- yil va 1973-yillarda adib haftalik madaniy gazeta nashrlarini e'lon qildi. Toxir Vattorning ilk romani "Al-Laz" (o'zbek tilidagi versiyasi "Olovli so'moqlar") 1974-yil Jazoirida nashr etildi. Shundan keyin u yana bir nechta roman yozdi. Eng so'nggi romani "Avliyo Toxir qo'llarini duoga ko'tardi" 2005- yilda nashr etilgan. U jurnalistika va madaniyat sohasida ham faol bo'lib, 1960-yillarda ikkita madaniy haftalik gazeta, 1973-yilda esa "Al-Sha'b" gazetasi tarkibida yana bir madaniy nashr tashkil qildi. 1989-yilda yozuvchi "Al-Johiziya" nomli madaniy uyushmani tashkil etib, uning "Al-Tabyin" jurnalida muharrir sifatida faoliyat olib borgan. "Al-Johiziyya" uyushmasining asosiy maqsadlaridan biri arab va fransuz tillarida ijod qiluvchi Jazoirlik yozuvchilarni birlashtirish edi. Biroq usha davrdagi siyosiy vaziyatlar bu tashabbusga to'sqinlik qildi. Keyinchalik 1989-1992-yillarda davlat radiosi direktori lavozimini egallagan. Toxir Vattor o'z ijodi va madaniy tashabbuslari bilan Jazoir adabiyoti va siyosiy hayotining asosiy shaxslari qatoriga kirdi. Adib sotsialistik g'oyalardan ilohomlangan. Bu g'oyalarga ko'ra yozuvchilar jamiyatni tasvirlash bilan cheklanmasdan, uni oddiy xalq manfaatlarini yo'lida o'zgartirishga ham intilishi kerak.

Toxir Vattor asarlarida asosan siyosiy mavzularni yoritadi. Hikoya va romanlarida - fransuz mustamlakachiligiga qarshi kurash, milliy ozodlik harakatidagi ichki bo'linishlar, yerlarni haqiqiy dehqonlarga qaytarish, mustaqillikdan keyingi mamlakatdagi adolatsizliklar, jamiyatdagi ayollarning holati, korrupsiya, qashshoqlik va yana shu kabi bir qancha og'riqli masalalar namoyon bo'ladi. Adibning ilk romani "Al-Laz" (o'zbek tilidagi versiyasi "Olovli so'qmoqlar") Jazoir mustaqillik urushidagi voqealarni drammatik uslubda yoritadi va mustamlakachilikka qarshi kurashda qilingan qurbonliklarni tasvirlaydi. Vattor hayoti davomida jami 11 ta roman yozgan bo'lsa ular orasidagi eng muhimi sifatida aynan "Al-Laz" romani ko'rsatiladi. Yozuvchi ushbu romanga qalam tebratishni boshlar ekan u eng avvalo taniqli arab adiblari - Najib Mahfuz, Tavfiq-al Hakim, Taha Huseyn, Yusuf Idris kabi ijodkorlar haqida o'qigan va asarlarini tahlil qilgan. Shu bilan birga Tunis, fransuz va rus adabiyotlarini ham o'rganib o'z ijodiga tatbiq etishga intilgan. Uning ijodiy ilhom

manbalaridan biri Pablo Neruda bo'lib bu shoirning sotsialistik ruhdagi she'riyati Vattorga chuqur ta'sir qilgan. "Al-Laz" romani Jazoir hukmron partiyasining"adabiyot faqat milliy ozodlikni ulug'lashi kerak" degan talabiga bo'ysunmagan.Aksincha Jazoirning Milliy Ozodlik Fronti ichidagi yashirin qarama-qarshiliklarni fosh etadi va postmustamlaka boshqaruviga tanqidiy yondashadi.Adib asarlarida qisqa,aniq va badiiy tilda yozgan,arab adabiy an'analariga tayanib,yangicha ifoda shakllarini kashf etgan.Uning asarlari tarixiy xotirani tiklash,hukumat tomonidan buzilgan tarixiy haqiqatni fosh qilish va milliy o'zlikni anglash masalalariga bag'ishlangan.Yozuvchi umri davomida fransuz tilida ijod qilishdan qochib arab tiliga doimo sodiq qolgan.Uning ushbu sadoqati mustaqillikdan keyin arab tilining jamiyatdagi mavqei yanada oshishiga va arabiyzabon ijodkorlar safi kengayishiga poydevor bo'lgan.Toxir Vattor arab tilidagi adabiyotning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan.Uning sa'y harakatlari tufayli arab tilida ijod qiluvchi jazoirlik yozuvchilar uchun yangi maydon ochildi.U yozuvchi va jurnalist sifatida Jazoir adabiyotda muhim o'rin egallaydi va yuqori e'tirofga sazovor bo'lgan shaxslardan biri hisoblanadi.Toxir Vattor hech qachon yozishdan to'xtamagan.Jazoirning eng sermahsul va faol ziyolilaridan biri hisoblangan.Hayotining so'nggi yillarida og'ir kasallik bilan kurashgan va 2010-yil 12-avgustda vafot etgan. Nafaqat Jazoir adabiyoti balki butun arab adabiyotida uning asarlari o'quvchilar va adabiyotshunoslar tomonida e'tirof etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. At-Toxir V. Olovli so'moqlar. Ibrohimov B va Yusupov M tarjimasi-T.: Raduga 1986.
2. Прожгина С.В Современная Литература Алжира – М.: Высшая школа, 1987.
3. Ahmet Hamdi CAN -"Et-Tâhir Vattâr"ın Toplumcu Gerçekçi Romanlarında "Mücadele" makale.
4. <https://ru.m.wikipedia.org>
5. www.encyclopedia.com